

O‘ZBEK EPISTOLYAR NASRINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT YO‘LLARI

Dusmuratov Qahramon Mamadiyevich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

WAYS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF UZBEK EPISTOLARY PROSE

Dusmuratov Kahramon Mamadiyevich
Teacher of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

E-mail: qahramondusmuratov123@gmail.com

ПУТИ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОЙ ЭПИСТОЛЯРНОЙ ПРОЗЫ

Дусмуратов Кахрамон Мамадиевич
Преподаватель Денауского института
предпринимательства и педагогики



E-mail:

qahramondusmuratov123@gmail.com

Tel: +998975535096

<https://orcid.org/0009-0003-3875-9039>

Annotatsiya: Epistolyar bo‘lmagan epik asarlarda ham maktub motivining mavjud bo‘lishi tabiiy holdir. Ularda asosan bir-biridan uzoqda bo‘lgan qahramonlarning muhim fikrlari, o‘y-xayollari va dunyoqarashi o‘z aksini topgan bo‘ladi. Ushbu maktublar asar arxitektonikasida, syujetning takomilida hamda personajlar taqdirining hal qiluvchi pallalari yuzaga kelishida muhim o‘rin tutadi. XIX asr rus jamiyatidagi vaziyatni hamda umumbashariy muammolarni mahorat bilan badiiy talqin qilgan.

Kalit so‘zlar: epistolyar, o‘y-xayollar, dunyoqarash, syujet, takomil, personajlar, janr, ijtimoiy-siyosiy.

Аннотация: Мотив письма вполне закономерен даже в неэпистолярных эпистолярных произведениях. В основном они отражают важные мысли, идеи и мировоззрение героев, находящихся далеко друг от друга. Эти письма играют важную роль в архитектуре произведения, в развитии сюжета, в наступлении решающих моментов в судьбах героев. Он художественно осмыслил ситуацию в русском обществе XIX века и общечеловеческие проблемы.

Ключевые слова: эпистолярная, мысли, мировоззрение, сюжет, развитие, персонажи, жанр, общественно-политический.

Abstract: It is natural to have the motif of a letter even in non-epistolary epic works. They mainly reflect the important thoughts, ideas and outlook of the heroes who are far from each other. These letters play an important role in the architecture of the work, in the development of the plot, and in the occurrence of decisive moments in the fate of the characters. He artistically interpreted the situation in the Russian society of the 19th century and universal problems.

Key words: epistolary, thoughts, outlook, plot, development, characters, genre, socio-political.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Dunyo adabiyotshunosligida epistolyar nasr atroflicha tadqiq etilgan. Rus adabiyotshunosi O.Roginskayaning “Epistolyar roman: rus adabiyotida janr poetikasi va uning transformatsiyasi” dissertatsiyasida [12] epistolyar roman poetikasi, XVIII–XIX asr rus adabiyotida Yevropa epistolyar romanchiligi an’alarining voqelanishi o’rganilgan. Ilmiy ishga jahon adabiyotining eng sara epistolyar nasriy asarlari haqida qisqacha ma’lumot beruvchi bibliografiya ham ilova qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Orif Bozorovning “Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari va qahramon muammosi” dissertatsiyasida prozaik asarlardagi maktublarning turlari haqida quyidagi fikrlar bayon qilingan. “Hukmdorlar o’rtasidagi siyosiy yoki diplomatik maktublar butun-butun xalqlar, davlatlar hayotida muayyan rol o’ynagan. San’at va madaniyat vakillari o’rtasidagi maktublarda muhim ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar o’rtaga tashlangan va hal etilgan. Shaxsiy maktublar esa odamlar o’rtasidagi do’stlik, mehr-oqibat, sadoqat in’ikosidir. Hayotda uchraydigan ana shu xat turlarining barchasi badiiy adabiyotga olib kirilgan” [3].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ushbu ilmiy ta’rifga tayangan holda nasriy asarlar tarkibidagi maktublarni quyidagi guruhlarga ajratgan holda tasniflash mumkin.

1. Hukmdorlar o’rtasidagi maktublar.
2. Ijodkorlar, san’at va madaniyat arboblari o’rtasidagi maktublar.
3. Shaxsiy maktublar.

Lev Tolstoy ijodida ham xatlarga keng murojaat qilingan. Stepan Arkadichning o’z oilasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun xat bilan Annani Peterburgga chaqirishi Anna va Vronskiy munosabatlariga yo’l ochadi [9]. Chingiz Aytmatovning “Kassandra tamg’asi” romanida rohib Filofey kassandra embrionlari haqidagi ilmiy kuzatishlari natijalari va boshqa chuqur falsafiy mushohadalarini Rim papasiga xat shaklida bayon qiladi. Filofeyning o’limi oldidan insoniyatga qoldirgan xabari ham achchiq iqrorlarga, davlat va fuqarolar o’rtasidagi og’ir ijtimoiy-siyosiy

ziddiyatlar tasviriga boy bo’lgani uchun ham asarning badiiy-falsafiy ta’sir kuchini yanada orttirgan [10]. “Jamila” qissasi voqealari rivojida ham maktub motivi o’z o’rniga ega. Jamilaning eridan ko’ngli ma’lum darajada sovlashiga frontdan yuborilgan xatda o’zining yetarlicha eslanmasligi sabab bo’ladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Qadimgi sharq va O’rta Osiyo xalqlari adabiyotida ham maktublarga asoslangan janrlar hamda turli janrdagi asarlar tarkibida maktublar mavjud bo’lgan.

“O’rni kelganda aytib o’tish lozimki, fors-tojik adabiyotida, uning ta’sirida turkiy adabiyotda epistolyar asarlar alohida janr namunasi – noma shaklida Yevropa adabiyotidan oldin paydo bo’ldi” [3]. Noma janri vujudga kelishidan avval ham turkiy va forsiy tildagi adabiy manbalarda maktublar mavjud edi. Turkiy xalqlarning ilk mushtarak yozma adabiy yodgorligi bo’lgan O’rxun-Enasoy tosh bitiklarida ham xat yuborish bilan bog’liq holatlar mavjud. “To’nququq” bitiktoshida ta’kidlanishicha, o’g’uz xoqoni Tabg’achga Kuni Sangun, Xitoyga To’ngra Sem ismli elchilarni yuborib ularni turklarga qarshi birlashishga undaydi. Kontekstdan ham, umumiy mazmun-mohiyatdan ham elchilarning hukmdor maktubini yetkazgani anglashilib turadi. Qolaversa, O’rxun-Enasoy obidalarining barchasi ham o’tmishda ulkan qudrat sohibi bo’lgan turk xalqining kelajakka qoldirgan xabari – maktubi sifatida yaratilgan.

Xalq dostonlarida ham maktub motiviga ko’p murojaat qilingan. Xolbeka o’z surati, soch tolasi va uzukni sandiqqa solib daryoga oqizib yuboradi. Bu holat o’z ahvolidan Kuntug’mishga yetkazilgan xabar tarzida izohlanadi. “Alpomish” dostonida qalmoq yurtidagi Barchin o’z shartlarini Alpomishga xat orqali bildiradi. “Ravshan” dostonida o’g’lining begona yurtda asirga tushib, og’ir ahvolda qolganini mayna qush orqali yuborilgan maktubdan bilgan Hasanxon kallar yordamida o’g’lini qutqaradi, uni qatl etmoqchi bo’lgan shohni halok qiladi.

Turkiy tilda yaratilgan ilk epik doston “Qutadg’u bilig” matnida ham bir qancha xatlar mavjud. Misol tariqasida Kuntug’dining O’zg’urmishga, Oyto’ldining hukmdor – eligga yozgan maktublarini yodga olish joiz. Mumtoz adabiy asarlarimizda maktubning eng go’zal namunalarini yaratgan ijodkor Alisher Navoiydir. “Farhod va Shirin” dostonining 45-bobida Shirinning Farhodga yo’llagan maktubi keltirilgan. Shirin Farhodga yuzlanib, uning Sulaymon o’zining Bilqis o’rnida bo’lishini istashini ta’kidlaydi.

Shuningdek, ushbu xatda ma'shuqa tana a'zolari tashbeh san'ati asosida oshiq dard-u g'amiga bog'liq shaklda tasvirlangan. "Saddi Iskandariy" dostonida Doroning Iskandarga nopisandlik bilan chavgon, to'p va kunjut yuborgani, oqil hukmdorning bu hadyalar xususiyatlar, belgilarini donolik bilan sharhlab, yuboruvchini dog'da qoldirgani mahorat bilan aks ettirilgan.

Qadimgi sharq adabiyotida ishqiy maktublar to'plami hisoblangan noma janrining mavjud bo'lganini ham alohida e'tirof etish joiz. Fahriddin Gurgoniyning "Dahnoma", Xoja Imomiddin Faqih Kirmoniyning "Muhabbatnomai sohibdilon", Xo'jandiyning "Latofatnoma", Yusuf Amiriyning "Dahnoma", Said Ahmadning "Taashshuqnoma", Sayyid Qosimiyning "Haqiqatnoma" va "Sadoqatnoma" asarlari ushbu janrda yaratilgan eng sara ijod namunalari.

Zamonaviy o'zbek nasrida epistolyar qissa va romanlarning soni u qadar ko'p bo'lmasa ham yozuvchilarimiz bu borada muayyan yutuqlarga erishib, boy ijodiy tajribalarga ega bo'ldilar. O'tkir Hoshimovning "Cho'l havosi", Maqsud Qoriyevning "Oydin kechalar", O'lmas Umarbekovning "Qizimga maktublar", Abduqahhor Ibrohimovning "Uyqu kelmas kechalar", Xurshid Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir mening", Iqbol Mirzoning "Bonu", Benazir Muhammadning "Yobondan gulxonaga maktublar", Ilhom G'aniyevning "Hayrat va hijron" asarlari epistolyar nasrimizning eng sara namunalariga aylandi. O'zbek adabiyotshunosligida bu toifadagi asarlarning maxsus tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlar ko'p emas. Orif Bozorovning "Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari va qahramon muammosi" dissertatsiyasida [3] Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" hamda Iqbol Mirzoning "Bonu" romanlari qiyosiy asosda tadqiq etilgan. Tadqiqotchi bu ikki asardagi muhabbat va yolg'izlik motivi, badiiy xronotop, bosh qahramon tanlash tamoyili, badiiy psixologizm muammolarini chuqur o'rganagan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Realistik prozada personajlar nutqining individualligi zaruriy xususiyat hisoblanar ekan, Qodiriy ham xatlar matnini yaratishda qahramonlarning ilmi, saviyasi va dunyoqarashini jiddiy e'tiborga oladi. Kumush va Ra'noning

xatlarida Mohlaroyim singari sharq ayollariga xos bo'lgan yuksak latofat va madaniyat ta'siri sezilib tursa, Otabek va Anvarning maktublarida qahramonlik dostonlarining asosiy personajlariga xos bo'lgan o'ktamlilik hamda ma'lum darajada romantik ruh ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1979. 444 b.
2. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 351 b.
3. Bozorov O. Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari va qahramon muammosi ("Yosh Verterning iztiroblari" hamda "Bonu" romanlari misolida) filol.fan. bo'yicha fals. d-ri diss. (PhD). Qarshi, 2022. 28-b.
4. G'aniyev I. Millat va axloq. – T.: Muharrir, 2022. –740 b. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, 11(12), e2676.
5. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, 57(1), 132–138.
6. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, – 1986.
7. To'rayev D. Ma'naviy olam talqinlari. – Toshkent: Akademnashr, 2020.– 288 b.
8. To'ychiyev A. O'zbek romanlarida makon va zamon. –T.: Mumtoz so'z, 2009. – 152 b.
9. Толстой Л. Анна Каренина. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981.
10. Айтматов Ч. Тавро Кассандры. – Москва:КФМЦ "ТКИСО", 1995.– 304 с.
11. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Наука, 1973. – 207 с.;
12. Рогинская О. Эпистолярный роман: поэтика жанра и его трансформация в русской литературе: Дисс.на соиск. ... канд.наук. – Москва, 2002. – 235 с.